

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	12-17
<i>Qurbonov Xurshid Raupovich</i> O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI .....	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI .....	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOYIY MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR .....	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) .....	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI.....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi</i> O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2024 yy).....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	60-64
<i>Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	65-69
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI .....	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR .....	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI .....	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI .....	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....	93-99

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) .....	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI .....	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....	165-169

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI .....	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....	186-191

<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI .....	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLIM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT .....	224-231
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI .....	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI .....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI .....	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	286-292
<i>Wang Cong</i> RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION .....	293-300
<i>Лу Адук</i> К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i> FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i> “KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI” .....	316-322
<i>Xatamov To'liqin Tojiddinovich</i> KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI .....	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i> VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI .....	330-337
<i>O'rinova Dilshoda Adhamovna</i> OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI .....	338-347
<i>Geng Zhimin</i> RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i> ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR .....	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i> ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i> DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI .....	368-374
<i>Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li</i> JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI .....	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	393-402
<i>Абророва Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI" .....	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOGBARLIK ASOSLARI .....	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI.....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOYIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....	458-463
<b>13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR .....	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI .....	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI VAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI .....	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....	497-501

**Received:** 16 March 2025

**Accepted:** 5 April 2025

**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ARTISTIC GRACE OF ATOYI'S POETRY**

**Daminova Rakhima Malikovna**

senior teacher, associate professor,  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract.** The Turkic poets who lived and created in the first half of the 15th century made a significant contribution to the development of our literature. The influence of the works of these poets is undeniable in the rise of Alisher Navoi's work to the pinnacle. One of such poets was Mawlana Atoy. This article discusses the unique charm of Atoy's poetry, his mastery in the genre of ghazal, the Turkic simplicity inherent in the poet's poetry, and the various poetic devices he used in his ghazals. The article analyzes the poet's verses created on the basis of the artistic technique of "irsoli masal", in particular, his couplets.

**Keywords:** ghazal, Turkic style, simile, irsoli masal, yakpora, voqeaband, musalsal, parokanda ghazal, meter, rhyme, iyto, sinod, hijo, iqvo.

---

## **ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI**

**Daminova Rahima Malikovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi,  
dotsent v.b

E-mail: [rahima\\_daminova@mail.ru](mailto:rahima_daminova@mail.ru)

**Annotatsiya.** XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan turkiyo'y shoirlar adabiyotimiz taraqqiyotga munosib hissa qo'shganlar. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqiga ko'tarilishida ushbu shoirlar ijodining ta'siri beqiyosdir. Ana shunday shoirlardan biri mavlono Atoyidir. Ushbu maqolada Atoy she'riyatining o'ziga xos jozibasi, g'azalchilikdagi mahorati, shoir she'riyatiga xos bo'lgan turkona soddalik, g'azallarida qo'llagan turli she'riy san'atlar haqida fikr yuritiladi. Shoirning badiiy san'atlarni qo'llash mahorati, xususan, irsoli masal san'ati asosida yaratilgan baytlari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** g'azal, turkona uslub, tashbeh, irsoli masal, yakpora, voqeaband, musalsal, parokanda g'azal, vazn, qofiya, iyto, sinod, hijo, iqvo.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N40>

**Kirish.** Turkiy she'riyat tarixida XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkiyo'y shoirlar adabiyotimiz va umuman, madaniyatimiz taraqqiyotida alohida o'ringa ega. Mavlono Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Gadoiy kabi ijodkorlar davrasida mavlono Atoyinnng ham munosib o'rni bor. Atoy hayoti va ijodi haqidagi dastlabki ma'lumotlar bizgacha Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" va "Muhokamat-ul lug'atayn" asarlari orqali yetib kelgan. Shuningdek, shoirga zamondosh bo'lgan Yusuf Amiriy ham "O'q va yoy" munozarasida Atoy nomini tilga olib, uning ijodidan namuna keltiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Alisher Navoiy shoir haqida ma'lumot berar ekan, uning nasl-nasabini alohida ta'kidlab o'tadi. "Majolis un-nafois"da shoirni "Ismoil ota farzandlaridandur" deb ataydi. Ismoil ota "Nasoyim ul-muhabbat"da tilga olingan turkistonlik tasavvuf shayxi. "Ismoil ato a. r. Zohiran Xoja Ahmad Yassaviy q. s. ning Ibrohim ato otlig'

inisining o'g'lidur va Xojaning muridi va nazar qilg'onidur va anga muridu ashob bo'lubdur. Va karomotu maqomot va xavoriqi odot benihoyat va yoshi yuzga yaqin. Va avlodi o'n yetti, yo o'n sakkiz bor erdi va olamdin o'tarda avlodi orasidin Ishaq atoni o'z qoyim maqomi qilib olamdin o'tubdur". [1, 153] Mashhur shayxlar-otalar avlodidan bo'lgani uchun o'ziga "Atoyi" taxallusini tanlagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Atoyi Balxda, shuningdek, Hirot va Samarqandda uch temuriy shahzoda: Mirzo Shohruhning o'g'li Muhammad Jo'qiy, Ulug'bekning o'g'li Abdullatif, Boysunqur Mirzoning o'g'li Alouddavlalar davrida yashaganligi aniqlangan.

Atoyining 260 g'azalni o'z ishiga olgan bir she'riy devoni yetib kelgan. Devonda g'azallar tartib bilan joylashtirilgan. G'azallarda ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qilsa-da, tasavvuf ruhidagi ayrim g'azal lar shoirning nihoyatda teran tafakkuridan dalolat beradi. Sharq lirikasida ishq-u muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoiy g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini shu va u bilan bog'liq fikr-u tuyg'ular tashkil etadi. Ishq-muhabbat mavzusi hayot, tabiat va insoniy fazilatlarga bo'lgan sevgi bilan uyg'unlashib ketadi.

**Muhokama.** Ishq mavzusi uch asosiy an'anaviy timsol: oshiq, ma'shuqa va raqib orqali yoritiladi. Oshiq yuksak fazilatlar egasi, o'z sevgisiga sadoqatli, ishq yo'lida sobit. Uning maqsadi yor vasliga erishish. U boshiga qancha g'am-alam kelsa ham ishqni tark etmaydi. Atoiy g'azallaridagi oshiq uchun yorsiz tanda jon ham, Xizr umridek abadiy hayot ham kerak emas:

Manga san bo'lmasang jon hojat ermas,  
Bihisht-u hur-u rizvon hojat ermas. [2, 107]

Ma'shuqa timsoli asosiy lirik qahramon – oshiqning hayot-mamotidir. Ishqiy mazmundagi she'rlarda ma'shuqaning ko'tarinki tasviri beriladi. Uning tashqi go'zalligi ta'rif-tavsif etiladi. U tengi yo'q go'zal, parilar ham, jannat hurlari ham ma'shuqa chiroyi oldida lol. Uning jamolidan oy-u quyosh xijil, nafasi Iso nafasi kabi jon bag'ishlaydi. Qadi sarv, tishlari inju, sochlari Chin lashkaridek hisobsiz. Mahbubaning ma'naviy olami haqida gap ketganda u ko'pincha zolim, adolatsiz, raqibga yor, oshiqqa dilozor, haqiqiy oshiqning qadriga yetmaydigan jafakor sifatida tasvirlanadi.

Atoiy ma'shuqaning vafosizlik bilan mashhur ekanligidan afsuslanadi:

Men jafo chekmak bila olamda xud ma'ruf edim,  
Hayfkim, bo'ldung vafosizlik bila mashhur sen.

Yoki:

Vafo qilmasmusang, g'amgin ko'ngulga lutf etib gah-gah,  
Ne b o'lg'ay va'dae qilsang ki, bo'lg'ay shodmon ondin. [2, 153]

Sharq she'riyatida an'anaviy timsollar bor. Masalan, oy, quyosh, sarv, hilol, pista, bodom, qand, novvot, g'uncha, la'l kabi timsollar ma'shuqaning go'zalligini tasvirlashda keng qo'llaniladi. Yorning qomatiga nisbatan sarv, shamshod, sanubar tashbihlari ishlatiladi:

Bog' ichinda qading kabi sarvi ravon topulmadi,  
Husn taninda santekin joni ravon topulmadi. [2, 143]

Atoiy yor qomatini yosh sanuvbar daraxtidan ham latifroq deb ta'riflaydi:

Dilrabo, la'ling sharobi obi kavsardin latif,  
Qomating naxli dog'i sarvi sanuvbardin latif.

Shoir bir o'rinda jannatdagi tubi daraxtini ko'rishni orzulagan kishi sening qadingga boqsin desa, bir o'rinda bu fikridan qaytadi, chunki tubi tuman yillik, yor qadi esa navnihol:

Tubi yig'ochi eski yig'ochtur tuman yillik,  
O'xshotmon onikim sanga, navbar yetilibsen. [2, 174]

Mahbuba qomatini ko'rgan sarv va shamshodlar xuddi lirik qahramondek hayratda qoladi:

Har biri turgan yerinda qoldi hayron bandatek,  
Qomatingdin bog' ichinda sarvu ham shamshodlar.

Shoir she'riyatning yanada jozibador, xalqchil bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri xalq tilida asrlar davomida sayqal topgan maqol va iboralarning keng qo'llanishidir. She'rning sodda va ravonligini, keng o'quvchilar doirasiga tushunarli bo'lishi uchun Atoyi xalq tilidagi iboralar, maqollar va hikmatli so'zlarni o'z g'azallarida keng qo'llagan. Ulardan ayrimlari fors-tojik mumtoz she'riyatida ham uchraydi, biroq ko'proq oddiy xalq tilida qo'llaniladi.

Atoyi ijodida uchraydigan ko'plab xalq maqollari hozir ham turkiy xalqlar orasida keng qo'llaniladi. Xalq maqollari, hikmatli so'zlari, matallarini she'rda qo'llash turkiy adabiyotda qadimdan mavjud. Eng qadimgi yozma manbalardan bo'lgan O'rxun-Enasoy obidalarida, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi she'riy parchalarda, "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida xalq maqollari va hikmatli so'zlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Demak, irsoli masal – she'rda ma'lum bir fikr ifodasi uchun maqol va hikmatli so'zlardan foydalanish san'ati qadimiy an'analar bilan bog'liq.

Y.Ishoqov irsoli masalning ishlatilishida uch muhim xususiyat ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi: "1.Keltirilayotgan maqol yoki matalga "masaldur" yoki "masaldurkim" so'zi yordami bilan aniq ishora qilinadi yoxud keltirilayotgan gap yoki iboraning manbaiga "derlar", "ayturlar" kabi vositalar bilan ishora qilinadi, uning xalq orasida ma'lum va mashhur ekanligi ta'kidlanadi. 2. Maqol yoki matal (hech qanday ishorasiz) aynan keltiriladi. 3. Maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli bir oz o'zgartiriladi yoxud yangicha shaklda ifodalanadi". [5, 3-8]

Atoyining quyidagi baytida "Yaxshilik qil, suvga sol" maqoli qo'llangan:

Chunki dilbar furqatinda aylading bag'rimni su,  
Ey yoman baxtim, ne bo'ldi, yaxshiliq qil sol sug'o.

Bu maqol Atoyining boshqa bir g'azalida quyidagicha takrorlanadi:

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin, yaxshiliq qil, sol sug'a,  
Oxir, ey gul, xirmani, albatta, har ekan o'ror.

Bu baytda irsol ul-masalayn (bir baytda ikkita maqol) qo'llangan.

Yuqoridagi g'azal davomi bo'lgan keyingi baytlarda ham xalq maqollari juda ustalik bilan g'azal mazmuniga singdirib yuborilgan:

Qildi jonimg'a meni shirin labing zavqi bale,  
Bu masaldurkim: "Kishi bol tutsa barmog'in yolor".

Og'zingizni har necha so'rdum, tiladim topmadim,  
Go'yo bu so'z g'alatdurkim:"Tilaganlar topor".

Zulfungizdin gar Atoyi boshqa ko'rsa ne ajab,  
Kim, ko'rmen: "Bir sinog'onni yana ikki sinor". [2, 189]

"Har kim ekanini o'rar" maqoli xalq orasida "Nima eksang, shuni o'rasan" shaklida uchraydi. "Kishi bol tutsa barmog'in yalar" maqoli ham turkiy xalqlar orasida turli shakllarda

uchrashi haqida E.Rustamov qayd etib o'tadi. Tatar xalqida "Bal totkan barmag'in yaliy" shaklida hozir ham uchraydi.

Xalq orasida "Egasini siylagan itiga suyak tashlar" maqoli bor. Bu maqoldan Atoyi quyidagi baytida mohirona foydalangan:

Sevsa agar Atoyi raqibin ajab ermas,  
"Kim eyasin og'izlar itiga so'ngak solur".

Xalq iboralari, ta'birlari, frazeologik birikmalari ham g'azallarning badiiy jihatdan yuksak, til, uslub jihatdan sodda va ravon bo'lishini ta'minlaydi.

Xalq orasida qalbi toza kishiga nisbatan "Ko'nglida kiri yo'q" iborasi ishlatiladi. Atoyi ana shu ibora vositasida oshiqning samimiy iqrorini ifodalaydi:

Necha xoki rohdek ko'rsang raqiblar ko'zida,  
Haq bilur, bir zarra ko'nglumda g'uborim yo'qturur.

Lirik qahramon o'zining ishq yo'lida sodiqligini ta'kidlash uchun quyidagi iborani qo'llaydi:

Manga sensiz tirilgandin o'lum yuz qatla ortuqroq,  
Bu so'zda, Haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur. [2, 78]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, xalq iboralari, ta'birlari, frazeologik birikmalaridan foydalanish g'azallarning til va uslub jihatdan sodda, ravon, badiiy yuksak bo'lishini ta'minlagan.

Turkona uslubda ijod etgan shoirlar xalq og'zaki ijodi namunalariga tayangan holda g'azallarining sarmazmun va xalqchil bo'lishiga, lirik qahramonining ichki kechinmalarini hayotiy lavhalar orqali ochishga e'tibor qaratganlar.

G'azallarning kompozitsiyasiga ko'ra yakpora, voqeaband, parokanda, musalsal kabi turlari farqlanadi. Atoiy devoni asosan mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallardan tashkil topgan. Shoirning "Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o'lturur" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida qisman voqeabandlik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. G'azalda xalq ertaklariga xos "suv yaqosida o'tirgan parilar", "suv qizi" kabi timsollar orqali ma'lum bir voqeiy lavha yaratilgan.

**Natijalar.** Qofiya she'rning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Sharq she'riyatida, ayniqsa, fors-tojik shoirlari ijodida qofiya qoidalariga qat'iy amal qilinganini ko'rish mumkin. Qofiyani tashkil etuvchi asosiy tovush – raviyning bo'lishiga shoirlar kuchli e'tibor qaratishgan. Lekin turkona uslubda yaratilgan she'rlarda qofiya talablariga har doim ham amal qilinmaydi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Atoyi qalamiga mansub "Ul sanamkim" deb boshlanuvchi g'azalining qofiyasi xususidagi fikrlariga tayanib, Y.Ishoqov shunday yozadi: "Mazkur baytning qofiyasi ohang jihatidan muvofiq bo'lsa-da, klassik arab-fors qofiyasi nuqtai nazaridan talabga javob bermaydi. Ya'ni bo'lur (raviy L) va o'lturur (R) so'zlarida qofiyaning asosi bo'lmish raviy mos kelmaydi. Ma'lumki, og'zaki adabiyotda qofiyaning ohangdoshligi (alliteratsion sistema) o'rin tutadi. Atoyining klassik qofiya nazariyasiga bog'lanib qolmasligi uning turkona yozishidan dalolat qilar ekan, demak, qofiyaga xos bunday holatni "turkona uslub"ning asosiy xususiyatlaridan biri deb hisoblash mumkin". [3, 3-8]

Adabiyotshunoslik ilmida qofiya talablariga javob bermagan she'rlar tanqid qilingan. Qofiyadagi uchraydigan nuqsonlarning sababini A.Hojjahmedov o'sha davr, ya'ni XV asrgacha bo'lgan davrda "vazn va qofiya tuzilishiga qat'iy amal qilish shart qilib qo'yilmagani va turkona uslub deb atalgan erkin uslubning qo'llanishida edi", – deb izohlaydi. [5, 157]

Atoyi qalamiga mansub quyidagi g'azal qofiyasini ko'zdan kechiraylik:

Ayo siymin badanlik ol mengizlar,  
Agar jonim kerak oling mengizlar.

Ki doim bir navog'a yetgay erdim,  
Agar ushshoq qadrin bilsangizlar.

.....  
Masal borkim, deganlarni dengizlar.

Jafodin yuz uyurmas sizni sevgan,  
Vale ham bir yo'li o'lturmangizlar.

Firoqinda ko'zim sarchashmasindin,  
Ko'rarmen har qayon boqsam tengizlar.

Muhiblar ishqini xonindin hamesha,  
Bag'ir qonin ichib ham g'am yengizlar.

Xiromon o'lsa har yo'ldin o'shul oy,  
Atoyi xokin anda istangizlar. [2, 82]

G'azalda qofiyaga olingan mengizlar – bilsangizlar – dengizlar – o'lturmangizlar – tengizlar – yengizlar–istangizlar so'zlarida hamohanglik bordek ko'rinsa ham, -ngiz qo'shimchasi olinsa, mengiz, bilsa, de, o'lturma, tengiz, ye, ista so'zlari qofiyadosh emasligi ko'rinib qoladi. Qofiyadagi bunday xato iyto deb yuritiladi. Bunda so'z o'zak-negiziga qo'shilgan turli qo'shimchalar qofiyani hosil qilgandek taassurot uyg'otsa-da, ular so'zdan ajratilsa, nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanib qoladi.

Qofiyada kuzatiladigan nuqsonlardan yana biri sinod deb nomlanib, bunda murdaf qofiyalarda ridf harfining o'zaro mos kelmasligidir, ya'ni cho'ziq hijolar bir-biriga muvofiq bo'lmay qoladi. Lekin ridflarning qofiyada aynan mosligi ohangdorlikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Masalan, Atoyining:

Uza bilmon ko'ngulni xo'blardin,  
Tanu jondin aziz mahbublardin, –

baytidagi cho'ziq "o" va "u" unlilarining kelishi ohangdorlikni buzmaydi, lekin mumtoz qofiya talablariga javob bermaydi.

Agar bunday nomuvofiqlik qisqa unlilarga tegishli bo'lsa, iqvo deb ataluvchi nuqson yuzaga keladi:

Yangog'ung ravzanung jannat gulidur,  
Bo'yung tubi, labing kavsar yelidur, –

baytidagi "l" raviysidan oldingi "u" va "e" unlilari tavjihlar, ya'ni qisqa unlilar bo'lib, ularning nomuvofiqligi iqvo xatosini keltirib chiqargan.

Bunday nuqsonli qofiyalarni Navoiygacha ijod qilgan shoirlar she'riyatida ko'plab uchratish mumkin. Bu turkona uslubda yaratilgan she'rlar uchun nuqson hisoblanmaydi.

Atoyi she'riyatida qofiyadan erkin foydalanish hollari ko'p uchraydi. Ayrim g'azallarida to'la bo'lmagan qofiyalarni ishlatadi. Bu holat boshqa turkigo'y shoirlar ijodiga qaraganda Atoyi

she'riyatida ko'proq ko'zga tashlanadi. Lekin shoir she'rlaridagi teranlik va uyg'unlikka putur yetkazmaydi, balki xalq qo'shiqlariga xos musiqiy ohangdorlikni yuzaga keltiradi.

**Xulosa.** Turkona uslubning taraqqiy topib, poetik jihatdan xilma-xil badiiy vositalar bilan boyib borishida Atoyi ijodining alohida o'rni bor. Shoir lirikasi turkiy xalqlar og'zaki ijodining eng muhim fazilatlarini o'zida mujassam etgan she'riyatdir. Badiiy tasvirining soddaligi, tilining ravonligi, xalq tiliga yaqinligi bilan bilan shoir she'riyati turkonalik kasb etadi.

Sodda til va ravon uslubda g'azallar yaratgan mavlono Atoyini Navoiy davrigacha bo'lgan yetuk shoirlar sirasiga kiritish mumkin. Xalq tilidagi leksik boyliklardan, ibora va maqollardan unumli foydalangan holda turkona zavq bilan yaratilgan shoir ijodi shakl, mazmun va poetik jihatdan Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy ijodi bilan hamohangdir. Atoyi ijodi o'zining sodda va ravonligi, vaznining o'ynoqiligi, ayrim o'rinlarda hazil-mutoyibaning misralar mazmuniga ustalik bilan singdirilgani, g'azallarining xalq og'zaki ijodidagi vaznlarda yozilganligi, maqol va iboralardan unumli foydalanganligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodidagi bunday holatni Navoiy "turkona" deb izohlaydi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Alisher Navoiy. Asarlar. XV tomlik. XV tom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. 288 b.
2. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: Fan, 2005. – 308 b.
3. Is'hoqov Y. Navoiy va o'zbek she'riyatida uslublar masalasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990. 5-son.
4. Rustamov E. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. – Moskva: Nauka, 1963. 5. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: Sharq, 2001. 92 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).